

MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARI - DASTLABKI OMONIM LUG‘ATLAR UCHUN POYDEVOR

Murtazayev G‘olib

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi uchun asos vazifasini bajargan buyuk qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchrovchi omonim so‘zlar tahlili va so‘z ma’nolari bilan tanishamiz. Omonim so‘zlar til boyligi uchun xizmat qiluvchi serqirra hodisa ekanligi borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: leksikografiya, leksik omonim, ishoraviy omonimiya, polisemantik so‘z, leksema, ma’no, “Devonu lug‘otit-turk” asari.

Mahmud Qoshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘sghan qimmatli tuhfasi “Devonu lug‘otit turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma’lumot beradigan mukammal qomusiy asar sanaladi. Asar taomlarning qadimiy nomlarini aniqlashda ham qimmatli manba hisoblanadi. Chunonchi, uyg‘ur olimi Xo‘ja Ahmad Yunus ta’kidlaganidek: “X asrdan XII asrgacha bo‘lgan oraliqda o‘tgan Qoraxoniylar sulolasining gullagan iqtisodiy va yuksak madaniy hayotini mahsuli bo‘lgan bu asar (turkiy xalqlarning) shu vaqtdagi va undan ilgarigi yeyish-ichish madaniyatini tadqiq qilishga asoslanadigan muhim manba sanaladi” .

“Devonu lug‘otit turk” kitobida keltirilgan ma’lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XII asrlarda diyorimizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, diniy e’tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir. Maqolada bu asar omonim so‘zlarga ham boy ekanligi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Bugungi kunda omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Shuningdek, omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida atroficha tadqiq etilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi va uning turli turli til birliklari bilan qiyoslash asosida Sh.Rahmatullayev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo‘rabojeva,U.Tursunova N.Rajabov, M.Mirtojiyev, K.Usmonovlar ilmiy tadqiqot¹ olib borganlar. Olib borilgan tadqiqotlarda *omonimiya* hodisasi *qo‘sishimcha, so‘z, ibora, tasviriyl ifoda, so‘z birikmasi, gap hattoki ishora*(tinish belgi)da mavjud bo‘lganidan fanda *affiks omonimiya, leksik omonim, frazaviy omonimiya, parafazaviy omonimiya, so‘z birikma omonimiya, gapomonimiya va ishoraviy omonimiya* va boshqaturlarga bo‘linadi². Ko‘rinib turibdiki, omonimiya hodisasi lug‘aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud.

Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. Koshg‘ariy omonimlarga oid materiallarni to‘plabgina qolmasdan , ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o‘ tgan. Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘t so‘zining o‘simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to‘rt xil ma’noda ishlatilishini ko‘rsatib o‘tgan³¹. Keyinchalik bu so‘z olov, o‘tmoq so‘zining o‘zagi kabi ma’nolar bilan boyigan³. Tarixiy ma“lumotlarga ko‘ra, olov ma’nosidagi o‘t so‘zi tamomila boshqa o‘zakdandir. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni o‘rt shaklida ko‘rsatadi. Buni Alisher Navoiy asarlari ham tasdiqlaydi: *Quyoshdek olam aro bazm chog‘i, Jahonga o‘rt solib razm chog‘i*. Asarda uchrovchi omonim so‘zlardan bir qanchasini ko‘rishimiz mumkin:

Av – 1)mensimaslik,qaysarlikni bildiruvchi yuklama;

2)ov.

Ashladi- 1)ovladi; 2) to‘plandi.

Ajmuq- 1) oq achchiqtosh; 2)kal.

Azig‘- 1) ayiq; 2) hushyor.

¹ Raxmatullayev Sh. O.,zbek frazeologiyasining ba“zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonomiya va omonomiklik). -Toshkent, 1966.; Ravshanov M. O.,zbek tilining izohli lug,,atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.; Suyunov B.T. O.,zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. –Toshkent, 2009.; Jo‘rabojeva M. O.,zbek tilida affiksal omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O.,zbek tilidagi shakldosh qo„shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.; Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo„lish yo„llari // O.,zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.; Mirtojiyev M. O.,zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent: 1963. –B.124.; So„zlarning shakliy munosabatiga ko„ra tiplari // O.,zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.; Mirtojiyev M. O.,zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O“zbek tilida affiks omonimlar. – Nasaf:1996.– 86 b.

² Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019. – 264 b.³¹

Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent:1960. – B.56

³ Mutallibov S. Omonim va polisemiya so`zlar. –Toshkent:1954.– B.29-30

Asri- 1) qoplon; 2) chipor.

Bash- 1) bosh; 2) boshlanish; 3) yara; 4) ish boshi, ariq boshi.

Beladi- 1) beshikka belamoq; 2) qonga belamoq.

Bilga - 1)hakim; 2) olim; 3) oqil, aqlli.

Boshandi - 1) boyligidan bo'shaldi; 2) qo'li bo'shandi; 3) taloq qilindi.

Bulg'aq -1) shovqin-suron; 2) fitna.

Dava- 1) yung bo'lagi; 2) yulg'un yog'ochining bo'lagi.

Inaq -1) sigir; 2) urg'ochi toshbaqa.

Isiklik - 1) issiqqlik,harorat; 2) sevgi, muhabbat o'ti.

Bu asarda leksik omonimlarning ko'pligini ko'ramiz. Shu boisdan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari omonimlarga boyligi bilan lug'at tashkil qilish imkonini beradi.Umuman, omonimiyaning voqe bo'lishi tilning o'z xususiyati bilan izohlanadi: har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzlucksiz o'zgarishlar bo'lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo'lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim. Bugungi zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham omonimlar mavzusida anchagina salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Ayniqsa, o'zbek tilidagi omonimlarni o'rganib, tadqiq qilish ishiga M.Mirtojiyev salmoqli hissa qo'shdi. Olim omonimlar haqida, jumladan, quyidagicha fikr bildiradi: "Omonimiya masalasi yuz yillar muqaddam N.I.Grech tomonidan ilgari surilgan.

Shunga qaramay, biror tilda hanuzgacha omonimlarning vujudga kelishi yuzasidan hech qanday monografik asar yo'q. Ma'nolari bir bosh ma'no orqali bir-biri bilan aloqador so'zlar ko'p ma'noli – polisemantik so'z deyiladi. Polisemantik so'zlearning ma'nolari har qancha ko'p bo'lmasin, u baribir bir so'zdir. Uning ma'nolari esa shu so'zning turli qirralaridir. Omonimlarning birinchi belgisi – o'zicha mustaqil ma'noga ega ikki va undan ortiq so'zlar bo'lishidir. Ikkinci belgi – nomlarning bir xilligidir... "Xulosa qilib aytganda, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari leksik qatlamning omonimligini yorqin ko'rsatuvchi asar hisoblanadi.Keyingi davr tilshunosligi uchun poydevor bo'lib,qimmatli o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.I.Smirnitskiy “Некоторые замечания по английской омонимике”
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent:Fan, 1985.– B.24
3. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. - T.,2015.– B.42
4. Faxri Kamol. O‘zbek tili leksikasi. – Toshkent: O‘ZRFA nashriyoti, 1953. – B.29-30
5. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o,,zbek tili lug,,at tarkibining rivojlanish asoslari // O,,zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1
6. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent:1960. – B.56
7. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent:1963. –B.124
8. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. –B.31